



THE PHILOSOPHICAL ESSENCE OF INNOVATIVE THINKING IN THE DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURIAL ACTIVITY

Akmalkhan Akhatjonovich Sayitkhanov

Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences

Fergana State University

E-mail: akmalxonsayitxonov107@gmail.com

Fergana, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: innovation, innovative thinking, societal development, creative thinking, sustainable development, competitiveness.

Received: 11.12.25

Accepted: 12.12.25

Published: 13.12.25

Abstract: This article analyzes the essence of innovative thinking, its role and importance in society's development. The impact of innovative thinking on economic, social, and spiritual development is revealed. The strategic importance of innovative thinking in the context of globalization and digital development is also substantiated.

TADBIRKORLIK FAOLIYATI TARAQQIYOTIDA INNOVATSION TAFAKKURNING FALSAFIY MOHIYATI

Akmalxon Axatjonovich Sayitxonov

Farg'ona davlat universiteti f.f.b.f.d (PhD)

akmalxonsayitxonov107@gmail.com

Farg'ona, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: innovatsiya, innovatsion tafakkur, jamiyat taraqqiyoti, ijodiy fikrlash, barqaror rivojlanish, raqobatbardoshlik.

Annotatsiya: Mazkur maqolada innovatsion tafakkurning mohiyati, uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyati tahlil etiladi. Innovatsion tafakkurning iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy rivojlanishga ta'siri ochib beriladi. Shuningdek, globallashuv va raqamli taraqqiyot sharoitida innovatsion fikrlashning strategik ahamiyati asoslab beriladi.

ФИЛОСОФСКАЯ СУТЬ ИННОВАЦИОННОГО МЫШЛЕНИЯ В РАЗВИТИИ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Акмалхон Ахатжонович Сайитханов

Доктор философии (PhD) по филологическим наукам

Ферганский государственный университет

E-mail: akmalxonsayitxonov107@gmail.com

Фергана, Узбекистан

О СТАТЬЕ

<p>Ключевые слова: инновационное мышление, общество, устойчивое конкурентоспособность.</p>	<p>инновация, развитие мышления, развитие,</p>	<p>Аннотация: В данной статье анализируется сущность инновационного мышления, его роль и значение в развитии общества. Раскрывается влияние инновационного мышления на экономическое, социальное и духовное развитие. Также обосновывается стратегическое значение инновационного мышления в условиях глобализации и цифрового развития.</p>
---	--	---

Kirish. Innovatsion tafakkur – bu yangilik yaratishga, muammolarga noan’anaviy yechim topishga va mavjud bilimlarni yangi sharoitga mos qo‘llashga qaratilgan fikrlash usulidir. Innovatsion tafakkur – bu ma’lum bir davrga xos emas, balki jamiyat taraqqiyotiga bog‘liq holda doimiy rivojlanib boradigan fikrlash shaklidir. U ehtiyoj, bilim, erkin muhit va ijodiy izlanish orqali yuzaga keladi va jamiyat barqaror rivojining muhim sharti hisoblanadi.

Innovatsion tafakkur barcha davrlarda ham dolzarb bo‘lib kelgan. Farovon turmush tarzi, insoniyat taraqqiyotida va jamiyatga oid bo‘lgan ijtimoiy hodisa sifatida barcha davrlarida ham muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Chunki innovatsion tafakkurga ega bo‘lgan shaxslar, tadbirkorlar, liderlar jamiyat, millat, davlat taraqqiyotini belgilab beruvchi muhim subyektiv omillardan biri hisoblanadi. Subyektiv omilning tarixiy taraqqiyotdagi roli ulkan bo‘lib, u jamiyat taraqqiyotining strategik yo‘nalishlariga ta’sir ko‘rsatadi va ko‘p hollarda nafaqat millat va davlat taraqqiyotini, uning taqdirini ham belgilab beradi. O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar tadbirkorlik sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish bilan uzviy bog‘liq ekanligi oydinlashmoqda. Shu bois so‘nggi yillardagi keng ko‘lamdagi islohotlar negizida tadbirkorlik faoliyatini takomillashtirish, yangicha yondoshuvlarni qo‘llash, yangicha va ilg‘or yondoshuvlarga tayanish va xalq manfaatlarini ustuvorligiga qaratilgan islohotlar olib borilmoqda. Xususan, “Hayotning o‘zi bizdan professional, tezkor va samarali davlat xizmati tizimini shakllantirish, yangicha fikrlaydigan, tashabbuskor, el-yurtga sadoqatli kadrlarga keng yo‘l ochib berishni talab etmoqda” [1.88]. Buning uchun esa, tadbirkorlarni ham kasbiy, ham axloqiy tarbiyalash va nazorat qilish tizimini takomillashtirish vazifalarini talab etmoqda.

Ijtimoiy muammolarni hal etishda innovatsion tafakkur yangi yondashuvlarni taqdim etadi. Ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya tizimlarida innovatsion g'oyalar aholi turmush sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, jamiyat a'zolarida faol fuqarolik pozitsiyasi va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantiradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tadbirkorlik tushunchasi tarixiy manbalarda O'rta asrlardan boshlab uchraydi. Yevropa bo'ylab cheksiz foyda olish maqsadida, savdogarlar, missionerlar va hunarmandlarning tadbirkorlik xarakati keng tarqaladi. XVI asrda aksionerlik kapitalining iqtisodning barcha turlariga ta'sir qilish jarayoni boshlangan. XIX asrda Yevropada oilaviy firmalarni yemirilishi, tarqab ketishi kuzatilgan va kichik va yirik biznes o'rtasidagi nomunotasiblik chuqurlashib borgan. Avstriyalik faylasuf olimlar L.Mizes va F.Xayeklarning tadqiqotlarida tadbirkorning shaxsiy qobiliyati, faoliyati, xususiyatlari, ya'ni uning o'zgaruvchan iqtisodiy, ijtimoiy hodisalarga munosabati, qaror qabul qilishdagi mustaqilligi, boshqarish qobiliyatiga, tadbirkorlikning jamiyat iqtisodiy muhitini muvozanatlashtirishdagi o'rni, iqtisodiy tizimni tartibga solishdagi rolini [2.394] tahlil qilishga katta e'tibor berganlar. Ushbu yondoshuvda tadbirkorlikda innovatsion tafakkurni mohiyati, tadbirkorlik madaniyati va tadbirkor shaxsni yangilik kiritishga undash borasida umumfalsafiy tahlili keltirilgan.

Tadqiqotchi K.Makkonell va S.Bryu tadbirkorning psixologik portretini gavdalantirishga harakat qilib, uni ishlab chiqarish omillarini birlashtiruvchi, katalizator vazifasini bajaruvchi, biznes yuritishda dolzarb qarorlar qabul qiluvchi, yangi texnologiyalarni joriy etuvchi, raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarishga intiluvchi, tavakkalchilikka moyil shaxs sifatida izohlaydilar[3.38]. Bizning fikrimizcha, tadbirkorlikning o'z iqtisodiy tabiati mavjud bo'lib, ushbu mavjudlik uning ikki tomonlama xususiyatida namoyon bo'ladi. Bir jihatdan, tadbirkorlik xususiy mulkchilik sifatida bo'lsa, ikkinchi tomondan, innovatsion tafakkur orqali faoliyatini yuritish va boshqarishdir.

Bugungi kundagi tadbirkorlik faoliyati albatta uzoq o'tmishga boib taqaladi. Ajdodlarimizning Qadimgi Xitoy, Qadimgi Hindiston, Bobil, O'rta Yer dengizi atrofidagi xalqlar, Yevropa davlatlari bilan o'rnatgan iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy aloqalari tadbirkorlikni taqozo etgan. Buyuk ipak yo'li aslida tadbirkorlik namunasi, xalqimizning turli davlatlar va qit'alar bilan o'rnatgan iqtisodiy, madaniy aloqalarining, shu jumladan, tadbirkorligining ham ifodasidir.

Tadbirkorlik faoliyatiga turlicha ta'riflar berilgan. Masalan, A.Ortiqov unga –“amalda qabul qilingan qonunlar doirasida korxonalar, firma tashkil qilish, foyda olish maqsadida mahsulot ishlab chiqarish (yoki xizmat ko'rsatish) bilan shug'ullanuvchi faoliyat”[4.100], deb ta'rif beradi. Bu o'rinda huquqiy masalalarga e'tibor qaratilgaligi ko'zga tashlanadi. Bunday yondoshuvni O'zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi Qonunda ham kuzatamiz. “Tadbirkorlik faoliyat (tadbirkorlik), – deyiladi unda, – tadbirkorlik

faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad olishga qaratilgan tashabbuskor faoliyatdir" [5.5]. Bu o'rinda shaxsiy tashabbusga urg'u berilayotgan bo'lsa-da, qolgan jihatlar tadbirkorlikda yangicha fikrlarsh, faoliyatga yangicha yoondoshish xususiyatlarini hisobga oladi. Shunday ekan tadbirkorlik faoliyati insonning tashabbuskorligi, innovatsion tafakkuri va ishbilarmonligiga bog'liq bo'ladi.

Bugungi kunda O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar kambag'allikni qisqartirish va qashshoqlikka qarshi kurashishga qaratilgan. Zero, «kambag'allikni kamaytirish–bu aholida tadbirkorlik ruhini uyg'otish, insonning ichki kuch-quvvati va salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish, yangi ish o'rinlarini yaratish bo'yicha kompleks iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni amalga oshirish, demakdir [6.31].

O'zbekistonda ham iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish va ijtimoiy farovonlikni yaratishga alohida e'tibor qaratmoqda. Buning uchun jamiyatda ijtimoiy faollikni oshirish, tadbirkorlikda yangicha fikrlash madaniyatini shakllantirish, axloqiy munosabatlarni yuksak qadrlaydigan jamoani tarbiyalash dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Shu o'rinda V.D.Svetkovaning "agar biz inqirozga yuz tutishni istamasak, milliy madaniyatimiz va mentalitetimizni saqlab qolishni hohlasak, unda biz professional mutaxassislarni tayyorlashni keng miqyosida yo'lga qo'yishimiz kerak. Innovatsiyalar aynan kreativ, innovatsion tafakkurga ega bo'lgan shaxslar tomonidan yaratiladi" [7.162] deb aytgan fikriga qo'shilishimiz mumkin. Tadbirkorlik shaxsiy tashabbus va manfaatlarga asoslanadigan faoliyat turidir.

Natija va muhokama. Hozirgi zamonda barqaror iqtisodiy o'sishning eng muhim garovi – raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, mahsulotlar uchun yangi xalqaro bozorlar topish va eksportni ko'paytirish, mintaqaviy tranzit salohiyatidan to'liq foydalanish hisoblanadi. Shuning uchun ham O'zbekiston faol tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash uchun eng muhim masalalarni hal etishga urinmoqda. "Jahon bankining "Biznes yuritish" reytingida eng yaxshi 50 ta mamlakat qatoriga kirish bo'yicha barcha tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarni qabul qildik. Hukumat ushbu tadbirlarning amaliy ijrosini samarali tashkil etishi zarur" [8.24]. Hozirda yurtimizda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, yoshlarimizda innovatsion tafakkurni rivojlantirish hamda bu sohadagi yondashuvlarni o'zgartirish, innovatsion tamoyillarni joriy etish zarurati yuzaga kelmoqda.

Innovatsion tafakkur va tadbirkorlik madaniyati amalda bir-birini to'ldiruvchi ikki negiziy omil hisoblanadi. Innovatsiya g'oya yaratadi, tadbirkorlik madaniyati esa uni amalga oshiradi. Ularning o'zaro bog'liqligi quyidagi jihatlarda namoyon bo'ladi:

- innovatsion tafakkur – yangi zamonaviy texnologiyalarni, mahsulotlarni va yangi xizmat turlarini yaratadi.

- tadbirkorlik madaniyati esa ushbu yangi g'oyalarning iste'mol bozorida to'g'ri va keng joylashini ta'minlaydi.

- innovatsion fikrlash xavflarni (risklarni) aniqlaydi, tadbirkorlik madaniyati esa ularni adolatli va qonuniy boshqaradi.

- innovatsion tafakkur tadbirkorlik faoliyatida ilmiy asosni yaratsa, tadbirkorlik madaniyati esa jamiyatdagi iqtisodiy samaradorlikni oshiradi.

Kuchli innovatsion muhit mavjud bo'lgan joyda odatda startaplar, klasterlar, texnoparklar va biznes-inkubatorlar tez rivojlanadi, natijada fuqarolarning turmush tarzi farovonlik sari odimlaydi.

Innovatsiyalar tadbirkorlikda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, mahsulot va xizmatlarning sifati hamda raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Innovatsion tafakkur mavjud resurslardan tejamkorna foydalanish, ish jarayonlarini avtomatlashtirish va mehnat unumdorligini oshirish imkonini yaratadi. Masalan, raqamli texnologiyalar yordamida avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini joriy etish korxonalar faoliyatini optimallashtiradi.

Xulosa. Innovatsion tafakkur tadbirkorlik faoliyatining zamonaviy bosqichida asosiy harakatlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Ular iqtisodiy o'sishni tezlashtiradi, raqobatbardoshlikni ta'minlaydi va barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydi. Shu sababli, har bir tadbirkorlik subyekti o'z faoliyatida innovatsion yondashuvlarni joriy etishga alohida e'tibor qaratishi zarur. Innovatsion tafakkur va tadbirkorlik madaniyati mamlakatning iqtisodiy o'sishida hal qiluvchi omillar hisoblanadi. Ushbu ikki tushuncha o'zaro bog'liq va birbirini to'ldiruvchi jarayonlar bo'lib, ularning rivojlanishi ijtimoiy barqarorlik, iqtisodiy samaradorlik va global raqobatbardoshlikka olib keladi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar innovatsion muhitni shakllantirish, yoshlar startaplarini qo'llab-quvvatlash, ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish orqali kelgusida yuqori natijalarga erishishga xizmat qiladi. Innovatsiyaga asoslangan iqtisodiyot - bu mamlakatning kelajak taraqqiyoti, global maydondagi muvaffaqiyati va jamiyatning intellektual salohiyatining yuksalishi demakdir. Innovatsion tafakkurning tadbirkorlik madaniyatiga bevosita va juda kuchli aloqasi bor. Ular birbirini to'ldiruvchi, bir-birini qo'zg'atuvchi ikki asosiy fenomen hisoblanadi. Tadbirkorlik madaniyati yangi g'oya, yangicha yondashuv va yangicha yechim talab qiladi. Bu esa faqat innovatsion tafakkur orqali yuzaga keladi. Innovatsiya—bu faqat g'oya. Tadbirkorlik madaniyati esa uni moliyaviy rejalashtiradi, marketing strategiyasini yaratadi, bozorga kiritish yo'llarini topish orqali g'oyani amaliyotga tadbiiq etadi hamda faoliyatga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Тошкент: Ўзбекистон. 2021.

2. Хайек Ф.А. Индивидуализм и экономический порядок. –Челябинск: СОЦИУМ, 2011.
3. Макконелл К., Брю С. Экономикс: Принципы, проблемы и политика. В 2-х томах. Том 1. –Москва.: Республика, 2002.
4. Ортиқов А. Иқтисодий-ҳуқуқий атамаларнинг изоҳли луғати. –Тошкент.: Ғ.Гуллом номидаги адаб. ва санъат нашр., 1996.
5. Тадбиркорлик ҳуқуқларини ҳимоя қилиш бўйича Ўзбекистон Республикасининг норматив ҳужжатлари. –Тошкент.: Адолат, 2002.
6. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд. – Тошкент.: Ўзбекистон, 2020.
7. Цветкова В.Д. Новация и инновация в культуре самореализации личности : диссертация ... кандидата философских наук. - Челябинск, 2009.
8. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд. – Тошкент.:Ўзбекистон, 2020.